

INGLIZ TILIDAGI O'QUV MATERIALINI O'ZLASHTIRISHDA INTEGRATIV O'QITISHNING DISKURSIV ASOSLARI

ДИСКУРСИВНЫЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В УСВОЕНИИ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

DISCURSIVE FOUNDATIONS OF INTEGRATIVE TEACHING IN MASTERING ENGLISH LEARNING MATERIAL

YUSUPOVA MUXABBAT ANATOLEVNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Lingvistika va ingliz tilini o'qitish
metodikasi kafedrası mudiri p.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya: Bugungi kunda talabalarga ingliz tilini o'rgatishda ulardan foydalanilayotgan o'quv materiallarining qanchalik samarali o'zlashtirilayotgani muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada shu masalaga integrativ o'qitish nuqtai nazaridan yondashilib, til materiallarini o'rgatishda zarur bo'ladigan lingvodidaktik shart-sharoitlar ko'rib chiqiladi. Xususan, diskursiv komponentlarni o'quv jarayoniga qanday qilib uyg'un tarzda olib kirish mumkinligi, talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini oshirishda nimalar muhim ekanligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, J. Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasi misolida amaliyotda qo'llanilgan diskurs tahliliga asoslangan mashqlar va ularning natijalari ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: integrativ o'qitish, diskursiv komponent, o'quv material, o'quv-biluv motivatsiyasi, diskurs tahlili, dialogik nutq, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация: Сегодня одним из важных вопросов в обучении английскому языку является эффективность усвоения студентами используемых ими учебных материалов. В данной статье рассматривается этот вопрос с точки зрения интегративного обучения и исследуются лингводидактические условия, необходимые для преподавания языковых материалов. В частности, анализируется, как можно гармонично интегрировать дискурсивные компоненты в учебный процесс, что важно для повышения мотивации студентов к обучению. Кроме того, представлены упражнения на основе дискурсивного анализа, используемые на практике на примере рассказа Дж. Лондона «Любовь к жизни», и их результаты.

Ключевые слова: интегративное обучение, дискурсивный компонент, учебный материал, мотивация к обучению, дискурсивный анализ, диалогическая речь, коммуникативная компетенция.

Abstract: Today, one of the important issues in teaching English to students is how effectively they master the educational materials used by them. This article approaches this issue from the perspective of integrative teaching and examines the linguodidactical conditions necessary for teaching language materials. In particular, it analyzes how discursive components can be harmoniously introduced into the learning process, what is important in increasing students' learning motivation. In addition, exercises based on discourse analysis used in practice on the example of J. London's story "Love for Life" and their results are also presented.

Keywords: integrative teaching, discursive component, educational material, learning motivation, discourse analysis, dialogic speech, communicative competence.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim nazariyasi va o'qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning o'quv-biluv faoliyati dinamikasini oshirish masalasi gumanitar bilimlarning ilmiy xarakterga muvofiqligini talab etadi. O'qituvchining boshqaruvchilik roli ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatning bilish, mehnat va muloqot sohasidagi yutuqlarini talabalarga yetkazishni shart qilib qo'yadi.

O'quv materiali - o'qitish jarayonida foydalaniladigan, tahsil oluvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantiradigan, malaka talablari asosida ishlab chiqilgan ta'limiy resursdir. U lingvodidaktik jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida amaliyotda qo'llaniladi. Material qanchalik vizual va diskursiv xususiyatiga ega bo'lsa, talabaning til o'rganishga qiziqishi shunchalik kuchayadi, demak o'quv-biluv motivatsiyasining o'rni beqiyosdir.

Motivatsiya - inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo'nalishi, faolligi va barqarorligini belgilovchi psixofiziologik jarayon bo'lib, oliy ta'limda ingliz tilini o'rgatishda talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini kuchaytirish tashkiliy, faoliyatli, fiziologik va psixologik yondashuvlarga tayanadigan dinamik jarayondir. Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi o'quv materiallarida diskursiv komponentlarni integratsiyalash tamoyillarini aniqlash va ularning amaliyotdagi samaradorligini ko'rsatishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada foydalanilgan ilmiy-metodik manbalar ingliz tilidagi o'quv materiallarini integrativ yondashuv asosida o'zlashtirish, diskursiv komponentlarni ta'lim jarayoniga tatbiqetish hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini yoritishga xizmat qiladi. L.T. Axmedovanning innovatsion texnologiyalar haqidagi

qarashlari xorijiy til ta'limida zamonaviy metodlardan foydalanishning metodik asoslarini belgilab beradi. L.S. Vigotskiyning "Tafakkur va nutq" asarida nutq, tafakkur va ichki psixologik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilingan bo'lib, bu maqoladagi dialogik va monologik nutqni o'rganish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. F.M. Ikramxanovanning integratsiyalashgan ta'limga oid ishlari fanlararo aloqadorlik va o'quv materiallarini kompleks o'zlashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. K.L. Kiseleva va D. Payarning diskursiv so'zlar haqidagi tadqiqotlari esa matn tarkibidagi kommunikativ birliklarning semantik va pragmatik vazifalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. J. Londonning "Love of Life" hikoyasi maqolada amaliy tahlil materiali sifatida qo'llanib, badiiy matn orqali til, mazmun va nutqiy vaziyatni birgalikda o'rganish imkonini beradi. D.U. Hoshimovanning lingvodidaktik tadqiqotlari til o'qitishda madaniyatlararo va kommunikativ yondashuvni asoslashga yordam beradi. L.V. Shcherba hamda I.V. Sherstyaniyning ishlari esa tilning real nutq jarayonida, ayniqsa dialog va diskurs tarkibida namoyon bo'lishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Umuman, keltirilgan adabiyotlar maqolaning nazariy, metodik va amaliy jihatlarini uyg'un tarzda yoritishga xizmat qiladi.

METODLAR

Tadqiqotda integrativ yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metodik yo'nalishlar quyidagicha aniqlashtirildi: ingliz tili mashg'ulotlarini lingvodidaktik jihatdan to'g'ri tashkil qilish; talabalar bilimlarini bevosita va bilvosita sintez qilish; umumlashtirilgan ko'nikmalarni kompetensiya darajasida shakllantirish; lingvokorreksiya jarayonini modellashtirish; nutq va aloqa faoliyati turlarining o'zaro bog'liqligiga ustuvorlik berish.

Tahlil uchun diskursiv xususiyatli elektron resurslar (onlayn platformalar, multimediali matnlar, podkastlar, forumlar,

bloglar, videokontent) hamda badiiy matn J. Londonning “Love of Life” asari [5] tanlab olindi. Materialdan foydalanishda F. Ikramxanovanning ob’ektlararo seminarlari [3], L. Axmedovanning tematik kechalari [1] va D. Hoshimovanning integrativ darslari [6] metodik asos sifatida olindi.

Tajriba davomida talabalarga matnda diskursiv xususiyatli gaplarni (so‘roq, undov, darak gap) hamda so‘z birikmalarini aniqlash, matnni davom ettirish va mustaqil

interpretatsiya qilish topshirig‘i berildi. Bu jarayon o‘quv jarayoni sharoitlarini tabiiy aloqa sharoitlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi [6, 105-b.]. Diskursiv so‘zlarni tahlil qilishda I.V. Sherstyaniyning [9] va K. Kiseleva, D. Payarning [4, 9-b.] nazariy qarashlariga, dialogik nutqni tahlil qilishda esa L.S. Vigotskiyning ichki va tashqi nutq nazariyasiga [2; 315-b.] va nutq yaratish jarayoni haqidagi tadqiqotlarga tayanildi.

Jadval 1

Ingliz tilidagi o‘quv materialini o‘zlashtirishda integrativ o‘qitishning diskursiv komponentlari

Diskursiv-integrativ komponentlar	Mazmuni	O‘quv jarayonida qo‘llanishi	Kutiladigan natija
Kommunikativ funksionallik	Til birliklarining real muloqot vaziyatida qo‘llanishini ta‘minlaydi	Talabalarga savol-javob, fikr bildirish, izohlash va munozara topshiriqlari beriladi	Talabalarda amaliy nutqiy faollik va kommunikativ kompetensiya rivojlanadi
Diskursiv xilma-xillik	Matn, dialog, monolog, badiiy parcha, elektron resurs va multimediali materiallarni birlashtiradi	Badiiy matn, podkast, video, blog va forum materiallari asosida tahliliy mashqlar tashkil etiladi	Talabalar turli nutqiy vaziyatlarda til birliklarini to‘g‘ri anglashga o‘rganadi
Kognitiv faollik	Talabaning fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish faoliyatini kuchaytiradi	Matn mazmunini qismlarga ajratish, asosiy g‘oyani aniqlash va mustaqil interpretatsiya qilish topshiriladi	Mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuv shakllanadi
Kontekstuallik	Til materialini alohida emas, balki mazmun, vaziyat va nutqiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi	So‘z va gaplar badiiy matndagi vaziyat, qahramon holati va muallif g‘oyasi bilan bog‘lab tahlil qilinadi	Talabalar so‘zning lug‘aviy emas, kontekstual ma‘nosini anglaydi
Autentiklik	Haqiqiy nutqiy manbalar va original matnlardan foydalanishni ifodalaydi	J. Londonning “Love of Life” asari kabi badiiy manbalar asosida o‘quv topshiriqlari ishlab chiqiladi	Talabalarda tabiiy ingliz tilidagi matnlarni tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi
Interaktivlik	O‘qituvchi va talabalar, shuningdek talabalar o‘rtasidagi faol muloqotni kuchaytiradi	Guruhli muhokama, juftlikda ishlash, savol-javob va rolli nutq vaziyatlari tashkil etiladi	O‘zaro muloqot, hamkorlik va dialogik nutq malakalari mustahkamlanadi
Madaniyatlararo yo‘naltirilganlik	Tilni madaniyat, qadriyat, muomala etiketi va ijtimoiy kontekst bilan bog‘lab o‘rgatadi	Badiiy matndagi madaniy belgilar, qahramon xatti-harakati va ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi	Talabalarda madaniyatlararo kommunikativ sezgirlik shakllanadi
Bosqichma-bosqich murakkablashuv	O‘quv topshiriqlarini oddiy tushunishdan murakkab tahlil va mustaqil nutq yaratishga olib boradi	Avval yangi so‘zlar o‘rganiladi, keyin gaplar tahlil qilinadi, so‘ng matn davom ettiriladi	Til materialini izchil va ongli o‘zlashtirish ta‘minlanadi
Nutqiy faoliyat turlari integratsiyasi	Tinglash, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradi	Matn o‘qiladi, mazmuni muhokama qilinadi, yangi so‘zlar yoziladi va og‘zaki fikr bildiriladi	Talabalarda kompleks til ko‘nikmalari shakllanadi

NATIJALAR

Tahlil natijasida ingliz tilidagi o'quv materiallarida diskursiv komponentlarni integratsiyalash o'nta tamoyil asosida amalga oshirilishi aniqlandi: kommunikativ funksionallik, diskursiv xilma-xillik, kognitiv faollik, kontekstuallik, autentiklik, interaktivlik, madaniyatlararo yo'naltirilganlik, bosqichma-bosqich murakkablashuv, nutqiy faoliyat turlari integratsiyasi hamda kogeziya va kogerentlik tamoyillari. Bu tamoyillar kognitivizm, diskursiv xilma-xillik va funksionallik prinsiplariga asoslanadi.

Ingliz tilini o'qitishda o'quv-biluv faoliyati uch bosqichli tuzilishga ega ekanligi aniqlandi: motivatsion bosqichda diskursiv kommunikativ niyat (ma'lumot, xabar, so'rov) badiiy matn materiali asosida shakllantiriladi; analitik-sintetik bosqichda nutqning grammatik dizayni uchun til tuzilmalari diskursiv xususiyatda tanlanadi (masalan, so'roq gaplarning beshta turi); ijro bosqichida esa diskursiv fikrlarni ifodalash bilan bog'liq nutq harakatlari amalga oshiriladi.

J. Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan ishlash natijasida talabalar matnni elektron tarzda yuklab olib, parchalarga ajratdilar, yangi so'zlarni yozib oldilar va mantiqiy bog'lanishlarni angladilar. Ular matnni "The cry of a desperate man" deb nomlab, fe'l konstruksiyalarini tahlil qildilar hamda matndagi "The sun rose in the northeast..." jumlasini tarjima qilishda pronominal vositalarga (shaxsiy-ko'rsatish olmoshlari) e'tibor qaratdilar. Natijada talabalarining o'quv materialiga nisbatan motivatsiyasi sezilarli darajada oshganligi qayd etildi.

Dialogik matnlarning uch turi - savol-javob xarakteridagi, ma'lumot ustun bo'lgan va savol ustun bo'lgan dialoglar aniqlandi, bu Sherbaning "til o'zining haqiqiy mavjudligini dialogda ochib beradi" degan qarashini amaliyotda tasdiqladi [8; 58-b]. Shuningdek,

ingliz tilini o'qitish usullarining uchta guruhi kognitiv-tadqiqot, kommunikativ-muammo va muammo-qidiruv ajratildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, diskursiv xususiyatli o'quv resurslaridan foydalanish talabalarning faqat lingvistik, balki kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va kognitiv kompetensiyalarini ham uyg'un rivojlantiradi. Bu xulosa I.V. Sherstyaniyning diskursiv so'zlar muloqot jarayonini boshqarishi, haqiqat va axloqiy baholarni ifodalashi haqidagi fikri [9] bilan mos keladi.

Shu bilan birga, integrativ yondashuvning samaradorligi ma'lum tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga ya'ni muammoli yondashuvga asoslangan kognitiv faoliyatni faollashtirish, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida ijobiy shaxslararo munosabatlarni o'rnatish kabilar bilan bog'liqligi aniqlandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlari integrativ o'qitishning uch bosqichli tuzilishi - motivatsion, analitik-sintetik va ijro bosqichlari hamda o'nta diskursiv integratsiya tamoyili (kommunikativ funksionallik, diskursiv xilma-xillik, kognitiv faollik, kontekstuallik, autentiklik, interaktivlik, madaniyatlararo yo'naltirilganlik, bosqichma-bosqich murakkablashuv, nutqiy faoliyat turlari integratsiyasi, kogeziya va kogerentlik) asosida izchil amalga oshirilganda yuqori pedagogik samaradorlikka erishiladi. Motivatsion bosqichda talabalarning til o'rganishga bo'lgan ehtiyoji va kommunikativ niyati shakllantirilishi, ularni keyingi bosqichlarga ongli ravishda tayyorlaydi. Analitik-sintetik bosqichda esa til tuzilmalarini diskursiv xususiyatda tanlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantirilib, talabalar matn semantikasi va grammatik vositalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglaydilar. Ijro bosqichi esa

egallangan bilim va ko'nikmalarning real nutq harakatlarida ma'lumot uzatish, fikr bildirish, tushuntirish kabi shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu uch bosqichning izchilligi va o'zaro bog'liqligi talabalarda nafaqat alohida til ko'nikmalarini, balki yaxlit kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy matn xususan, Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asari misolida ko'rsatilgan amaliy mashqlar tizimi integrativ yondashuvning nazariy asoslarini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish mumkinligini yana bir bor tasdiqladi. Talabalarning matnni mustaqil o'qishi, uni semantik qismlarga ajratishi, konspekt va tezislarni tuzishi, dialogik va monologik nutq namunalarini tahlil qilishi natijasida ularning nafaqat lingvistik, balki kognitiv va ijodiy salohiyati ham rivojlandi. Bu jarayon talabalarning o'quv materialiga

nisbatan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi, chunki ular matn mazmunini shaxsiy tajriba va qadriyatlar nuqtai nazaridan idrok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Xulosa qilib aytganda, integrativ o'qitishning uch bosqichli modeli va diskursiv integratsiya tamoyillari o'zaro uyg'unlikda qo'llanilganda, ular ingliz tilini o'qitish sifatini tubdan oshirishga, talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini barqarorlashtirishga hamda ularda zamonaviy kommunikativ kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu modelni turli darajadagi til guruhlarida va turli janrdagi diskursiv matnlar (publitsistik, ilmiy-ommabop, multimediali) asosida qo'llab, uning samaradorligini empirik tarzda chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Ахмедова Л. Т. Инновационные технологии в обучении иностранным языкам. – Ташкент: Фан ва технология, 2012. – 176 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Икрамханова Ф. М. Интеграция учебных дисциплин как фактор повышения эффективности обучения. – Ташкент: Фан, 2008. – 148 с.
4. Киселева К. Л., Пайар Д. Дискурсивные слова как объект лингвистического описания // Дискурсивные слова русского языка : опыт контекстно-семантического описания / под ред. К. Киселевой и Д. Пайар. М. : Метатекст, 1998. С. 7–11. Максимова В.Н. Межпредметные связи в учебно-воспитательном процессе современной школы: учеб. пособие. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.
5. Лондон Дж. Love of Life and Other Stories. — New York: Macmillan, 1907. — URL: <https://www.gutenberg.org/files/710/710-h/710-h.htm> (дата обращения: 23.06.2025).
6. Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыкового взаимодействия : дис. ... д-ра пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.
7. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – С. 113.
8. Шерстяных И. В. Дискурсивные слова в структуре современного русского языка. – Иркутск: Изд-во Иркутского государственного университета, 2005. – 192 с.